

BIOETIKANING AXLOQIY MASALALARI

*Kadirova Gulchexra Muminovna**Samarqand davlat tibbiyot universiteti**Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bioetikaning axloqiy masalalari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit soʻzlar. Tabiat, tibbiyot, bioetika, muammo, ma'naviyat, biotsyentrizm, biotibbiyot, sog'liqni saqlash.

Insoniyat yaralibdiki u tabiatda yashab qolish uchun qaysidir ma'noda kurashgan va kurashmoqda. Sog'lom va mukammal yashash har bir davrda insonning hayotiy maqsadi bo'lgan va bu maqsad yo'lida u bazida turli qurbonliklarga sababchi bo'lgan. Buningnatijasida axloqiy qadriyat va jamiyat qonuniyatlarida turli muammoli vaziyatlarni keltirib chiqargan. Shunday muammolardan biri bu bioetika masalasi bo'lib, u tabiat, inson, texnika omili o'rtasida muammolar va ularni bartaraf etish uchun axloqiy qadriyatlar va insonparvarlik munosabatlarini tartibga solish tarixiy zarurat bo'ganligi va bu yo'ldagi dolzarb muammo hamda jarayonlar axloqiy meyyorlar doirasida hal qilinishi lozimligini mavjud sharoitning o'zi taqozo etgan. Insoniy makon qanchalik taraqqiy etmasin, inson o'z atrofidagi koinot, tabiat, inson tushunchalariga o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirmas ekan bu birinchi navbatda insonning o'ziga taxdid solishi muqarrar.

Global bioetika bir insonning boshqa odamlarga, hayvonlarga, tabiatga va butun borliqqa hurmat bilan munosabatda bo'lishi zarurligini e'tirof etadi. Ma'naviyatni o'stirish, biotsyentrizm nuqtai nazaridan dunyoqarash va madaniyatni shakllantirish, fanni rivojlantirish antropotsyentristik qarashlardan voz kechish bioetikaning asosiy maqsadlaridir. 1990 yilda o'tkazilgan bioetika masalalari bo'yicha simpozium bergan ta'rifga ko'ra, bioetika- tibbiyot va biologiyaning rivojlanishiga qarab yuzaga keladigan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni o'rganuvchi bilim sohasi. Boshqacha qilib aytganda, bu axloqiy munosabat me'zonlari to'g'risidagi fan, jamiyat manfaatlarini ilm - fan tajovuzidan himoya qiluvchi institut, shuningdek tibbiyot sohasidagi axloqiy muammolarni hal qilish metodologiyasidir. Bioetikaning asosiy maqsadi - insonni uning hayoti va sog'ligiga tibbiyot va biologiyaning salbiy ta'siridan himoya qilish. Agar tibbiyot etikasi faqat vrachlarga taalluqli bo'lsa, bioetika qo'mitalari faylasuflar, ekologlar, huquqshunoslar, jamoatchilik vakillari, shahar ma'murlaridan tuziladi.

Bioetika- biotibbiyot fani va sog'liqni saqlash amaliyotidagi so'nggi ilmiy yutuqlar natijasida yuzaga kelgan axloq va axloqiy muammolarni tushunish,

muhokama qilish va hal qilishga qaratilgan fanlararo tadqiqot sohasidir. Bioetika keng qamrovli, sohalararo fan sifatida o'zida tibbiyot, sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, mantiq, huquqshunoslik, menejment, dinshunoslik, pedagogika hamda boshqa tibbiy va notibbiy fanlar yutuqlarini jamlaydi, amaliy tibbiyotning axloqiy muammolarini o'rganadi. Bioetikani paydo bo'lishi va fan sifatida shakllanishi sabablari va shart-sharoitlari bilan bog'liq masalalarni o'rganish, jarayonida turli manbalarni o'rganish, tarixiy va qiyosiy tahlil, analiz, sintez, umumlashtirish kabi usul va uslublaridan samarali foydalanildi.

Fan - texnika taraqqiyoti sivilizatsiyaning ravnaq topishi manbai bo'libgina qolmasdan, ba'zan inson yashaydigan tabiiy muhitni buzib, uning hayotiga tahdid ham soladi. Ta'limni ijtimoiylashtirish, uni dunyoni yangicha tushunishga, dunyoni, yangi dunyoqarashlarni yaxlit qurishga, insonparvarlik tafakkurini tarbiyalashga yo'naltirish zamon talabiga aylanib bormoqda. Bu jarayonga bioetika ham o'zining munosib hissasini qo'shmoqdadir. Bugungi kunda inson global miqyosda fikrlashi, atrof olam uchun o'z mas'uliyatini anglab yetishi, tabiat bilan o'z munosabatlarini uyg'unlashtirishi, davlat, milliy, ijtimoiy, madaniy tafovutlarga qaramay, insoniyat yagona ekanligini, tabiat, madaniyat va hayotni saqlash va rivojlantirish uchun umumiy, yagona yashash kontsyepsiyasi va hamkorlik zarurligini tushunib yetishi lozim. Bo'lajak shifokorlarda dunyoqarash madaniyatini, boy ma'naviy olamni, umuminsoniy, ma'naviy qadriyatlarni, shaxsiy mas'uliyat etikasini, mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirish vazifasi birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. Tarixga nazar salsak 2005-yil oktabrda bioetika va inson huquqlari umumiy normalari Deklaratsiyasining qabul qilinishi YUNESKO tinchlik, ma'naviy va axloqiy birdamlikni barqaror etish, bioetika masalalari bo'yicha xalqaro va madaniyatlararo munozaraga jalb qilish sohasida olib borgan ko'p yillik faoliyati natijasi bo'ldi. Tibbiyotda yuzaga kelayotgan axloqiy muammolar har tomonlama aniq ishlab chiqishni, keng muxokama qilishni va huquqiy qarorlar qabul qilishni taqozo etadi. Axloqiy jihatdan muhim qarorlar qabul qilishda tibbiyot xodimlari bilan bir qatorda jamoatchilikning ishtirok etishi bioetikaning muhim jihatlaridan biriga aylandi. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me'yorlari xam bor. Bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga albatta samarali ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Axloqiyotning muhim xususiyati shundaki, u odamlarning harakatlariga ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Biz axloqiy jihatdan yaxshi yoki yomon bo'lishimiz albatta xarakatlarimizda namoyon bo'ladi. Axloqiy fazilatlar - bu odamning fe'l atvori, temperamentining xususiyatlari, ular haqidagi bilimlarni maxsus fan sifatida ta'kidlash uchun Aristotel 'axloq' atamasini kiritdi.

Shuningdek, zamonaviy jamiyatda bioetika bir tomondan, yangi biotibbiyot bilimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda qo'llash sohasida o'ziga xos

ijtimoiy institut sifatida ishlaydi. Fundamental tibbiy-biologik fanlarni tezkor rivojlanishi, yangi biotibbiy texnologiyalarning kashf etilishi ma'lum bir muhim vazifalarni hal etish bilan bir qatorda, tibbiy etika doirasidan chetga chiqadigan boshqa yangi muammolarni yuzaga kelishigi sabab bo'ldi. Masalan, genetikaning muvaffaqiyatlari, odam genomining ochilishi nafaqat ayrim to'qimani, balki butun bir organizmni klonlash imkoniyatini yuzaga keltirdi. Transplantologiya sohasidagi muvoffaqiyatlar o'z navbatida odam va murda donorligi masalasida qator yangi muammolarni vujudga keltirdi. Sun'iy urug'lantirish, surrogat onalikdan foydalanish keng tarqalmoqda. Zamonaviy reanimatologiya oldin umidsiz hisoblangan bemorlarni hayotga qaytarmoqda. Jinsni o'zgartirish borasida jarrohlik amaliyoti masalalari hal etildi va shu kabilar.

Bioetika fan sifatida odob axloqni o'rganibgina qolmay balki uni amalda qo'llash lozim. U amalda qo'llangach albatta insonlarning bir biriga bo'lgan muloqot madaniyati yaxshilanadi, to'g'ri yashashni o'rganadi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Natijada ular muvaffaqiyatli insonlarga aylanishadi. Insonlar oldida tanlov turganida, ya'ni, yaxshi yoki yomon tomonda turish kerak bo'lsa, uning harakatlariga va ayniqsa, vaziyatga nisbatan ko'p narsalar haqida gap ketadi. Masalan, sodiqlik va xiyonat, yordam yoki befarqlik o'rtasidagi ziddiyat va boshqalar. Ota-onalar bolaligidanoq bolalariga nima yaxshi, nima yomon ekanini aytishadi. Insonning axloqiy tanlovi uning xarakteriga, o'ziga xos holatiga, tarbiyasi va boshqa muhim jihatlariga bog'liq.

Har bir inson yaxshi va yomon kontsepsiyalarga asoslanib, qandaydir vaziyatda qanday ishlashni o'zlari hal qilish huquqiga egadir. Bunday vaziyatlarda uning axloqiy va axloqiy nuqtai-nazari haqida fikr yuritish mumkin. Nima uchun axloqiy tanlov kerak va uning ta'siri nimani anglatishi kerak, shuning uchun tanlangan yo'nalishda qadam qo'yadi, shaxs uning shaxsiyatini va uning atrofidagi odamlarning fikrini shakllantiradi. Axloqiy tanlov xalqlarning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin, chunki ko'pincha prezidentlar o'zlarining axloqiy me'yorlariga asoslangan tanlovlarni amalga oshiradilar. Insonning odob axloqlari haqida bir qancha alommalarimiz ham o'z fikrlarini bayon etganlar. Arastu ham «Kim fanda ilgarilab, axloqda oqsasa, u oldinga emas, ko'proq orqaga ketadi» degan o'z fikrlari bilan insoning axloqi haqida juda ma'noli gaplar yozib qoldirganlar. Va bu bizning fanimizni yanada kengroq boyitishga o'z xissasini qo'shib kelmoqda.

Tibbiy dyeontologiya har bir vrachning bemor oldidagi, boshqa vrachlar oldidagi, bemorning qarindosh - urug'lari va yaqinlari oldidagi o'z majburiyatlarini ado etishiga asosiy e'tibor beriladi. Bu majburiyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- a) barcha muxtojlariga malakali yordam ko'rsatish;
- b) yordam ko'rsatish har insonning qadr - qimmatini e'zozlash va hamdardlik qilish;
- v) vrach sirini saqlash; patyernalizm printsipidan kelib chiqib mustaqil qarorlar qabul qilish;

- g) ziyon yetkazmaslik;
 d) o'z hamkasblariga vijdonan munosabatlarda bo'lish, bemorlarni aldaydigan, qallob vrachlarni fosh qilish;
 e) o'z bilimlarini oshirib borish;
 j) odamlarda (maxbuslarda) tajriba o'tkazmaslik;
 z) boshqa odamlarni qanday davolasa, maxbuslarga xam shunday sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
 i) qiynoqlarda yoki boshqa shafqatsiz va inson qadr-qimmatini kamsituvchi tadbirlarda faol yoki passiv ishtirok etmaslik;

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, bioetika ilmiy texnik taraqqiyot keltirib chiqarayotgan muammolar bilangina emas, balki bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan global siyosiy, ekologik muammolarni hal etishga ham qaratilgandir. Turli xil ma'naviy-tibbiy va axloqiy dunyoqarashlarning mavjudligini e'tirof etgan holda, Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Butun jahon tibbiy assotsiatsiyasi xalqaro tibbiy-etika kodekslari va kelishuvlari yordamida ushbu hamkorlikda yashash munosabatlarini boshqarib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Z.A.Giyosov —Vrach faoliyatining huquqiy asoslari — T. 2012y . 35-b
2. Muxamyedova Z.M. Bioetika darslik-B.3-6 Toshkent
3. Xalqaro bioetika qo'mitasi - International Bioethics Committee [https://uz.wikisko.ru › wiki › Internat...](https://uz.wikisko.ru/wiki/Internat...)
4. Polyakova, R.V. Vzaimootnosheniya vrach – bol'noy. Eticheskiye problemy / R.V. Polyakova, Marshalko O.I. // Sovremennyye problemy nauki i obrazovaniya. – 2012. – № 6.
5. Бокерия, Л. А., Лищук, В. А., Газизова, Д. Ш., Сазыкина, Л. В., Соболев, А. В., Махмудова, А. Н., & Колоскова, Н. Н. (2015). Концепция регуляции сердечно-сосудистой системы-от управления функциями к согласованию возможностей. Часть 6. Роль нагрузки на левый и правый желудочки сердца. *Клиническая физиология кровообращения*, (1), 19-29.
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=kqgchN8AAAAJ&pagesize=80&citation_for_view=kqgchN8AAAAJ:a0OBvERweLwC
7. Nugmanovna MA, Kamariddinovna KA. Modern biotechnical problems of medicine and their solutions. In Archive of Conferences 2021 Jan 28 (Vol. 13, No. 1, pp. 169-173).
8. Nugmanovna MA. Bioethics as a form of protection of individuality and personalized medicine. *Thematics Journal of Social Sciences*. 2022 Oct 28;8(4).
9. Мухамедова, З. М. (2023). Проект нового кодекса «Об охране здоровья граждан» Узбекистана и его этические приоритеты. *Academic research in educational sciences*, 4(7), 83-93.

10. Nugmanovna MA, Kamariddinova KM. WHAT A DOCTOR SHOULD KNOW TO WORK SAFELY AND EFFECTIVELY: INTERNATIONAL NORMS AND RULES. *Thematics Journal of Social Sciences*. 2022 Jun 19;8(3).
11. Nugmanovna MA. THE MEANING OF BIOETHICS IN THE SITUATION OF MODERN ANTHROPOLOGICAL CRISIS. *Journal of new century innovations*. 2024 Apr 18;51(2):81-4.
12. Мухамедова, З. М. (2023). ПРОГРЕСС БИОТЕХНОЛОГИЙ КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОПРАВОВОГО ОСМЫСЛЕНИЯ. *Academic research in educational sciences*, 4(7), 64-72.
13. Nugmanovna MA. ETHICAL PROBLEMS OF NEW REPRODUCTIVE TECHNOLOGIES. *Miasto Przyszłości*. 2024 Apr 19:9-12.
14. Умирзакова, Н. А. (2023). ДИАЛЕКТИКА НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕЛИГИОЗНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ В ПРОЯВЛЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ БИОЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 541-547.
15. Атамуратова, Ф. С. (2023). Особенности биомедицинского принципа – уважение автономии личности в психиатрии (Doctoral dissertation, Bioethics and medical law).
16. Мухамедова, З. М. (2023). Проект нового кодекса «Об охране здоровья граждан» Узбекистана и его этические приоритеты. *Academic research in educational sciences*, 4(7), 83-93.